

ISLOM MANBALARI: QUR'ON, HADISLAR, TASAVVUFDA TARBIYA G'OYALARI

Navoiy davlat universiteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi magistranti

Najmiddinova Muhiba Akmalovna

Annotatsiya. Ushbu ilmiy maqolada Islom dinining asosiy shar'iy manbalari — «adillai arba'a» deb nomlanuvchi to'rt manba: Kitob (Qur'oni karim), Sunnat (Payg'ambarimizning hadislar), Qiyos va Ijmo' — tarixiy, huquqiy va ilmiy nuqtai nazardan keng ko'lamda tahlil etiladi. Maqolada mazkur manbalarning shakllanish tarixi, o'zaro munosabati, shar'iy hukmlardagi o'rni va zamonaviy islom fiqhiga ta'siri ilmiy adabiyotlar asosida o'rganiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, shar'iy manbalar bir-birini to'ldiruvchi, izchil va mantiqan bog'liq bir tizimni tashkil etadi.

Kalit so'zlar: Islom huquqi, fiqh, Qur'on, Sunnat, Qiyos, Ijmo', shar'iy dalillar, ijtihod, mujtahid, hadis, vohiy, Islom qonunchiligi, ahlus sunna mazhablari.

KIRISH. Islom — insoniyat tarixidagi eng keng tarqalgan va eng mukammal qonunchilik tizimiga ega dinlardan biridir. Bu tizimning poydevori «adillai shar'iyya», ya'ni shar'iy dalillar yoki manbalar deb ataladigan to'rtta asosiy manba ustiga qurilgan. Ushbu manbalar Islom huquqi — fiqhning ham amaliy asosi, ham nazariy ustuni hisoblanadi. Islom qonunchiligi faqat diniy ibodatlarni emas, balki shaxsiy munosabatlardan tortib davlat boshqaruvigacha bo'lgan barcha sohalarda hayotni tartibga soluvchi qoidalar majmuasini o'z ichiga oladi. Bu qoidalarning manbasi aniq, ilmiy asoslangan va avloddan-avlodga uzluksiz etib kelingan. Zamonaviy huquqshunoslar va islomshunos olimlar tomonidan Islom fiqhining manbalariga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Ushbu maqola mazkur manbalarni tizimli va ilmiy tarzda taqdim etishni maqsad qiladi.

Qur'onning mohiyati va shar'iy o'rni. Qur'oni Karim — Islom dinining birinchi va eng muhim manbai. U Alloh taoloning kalomi bo'lib, payg'ambarimiz Muhammad

alayhissalomga Jabroil (Jibriyl) farishta vositasida vohiy qilingan. Qur'on «adillai shar'iyya»ning (shar'iy dalillarning) boshida turadi va barcha shar'iy hukmlarda birinchi o'rinni egallaydi.

Islom olimlarining tarifiga ko'ra, Qur'on — lafzi ham, ma'nosi ham Alloh tomonidan yuborilgan, Jabroil vositasida Payg'ambarimizga yetkazilgan, tavortur (uzluksiz silsila) yo'li bilan avloddan-avlodga meros qolgan va tilovat (o'qish) bilan ibodatga sabab bo'lgan muqaddas Kitobdir. Bu ta'rif Qur'onni boshqa barcha ilohiy kitoblardan va hadislardan ajratib turuvchi asosiy belgilarni o'z ichiga oladi.

Qur'onning nozil bo'lishi va yozib olinishi. Qur'on bir vaqtning o'zida emas, balki oyat-oyat, sura-sura holda, yigirma uch yildan ortiq vaqt mobaynida nozil bo'ldi. Bu jarayon Makkai Mukarramadan boshlangan va Madinai Munavvarada yakunlangan. Nozil bo'lgan oyatlar Payg'ambarimizning ko'z o'nglarida vohiy kotiblariga yozib olingan. Yozish uchun ishlatiladigan materiallar davr imkoniyatlariga ko'ra xilma-xil edi: xurmo novdasi, xurmo po'stlog'i, teri parchalari, tekis toshlar va hokazo. Sahobalarning bir qismi Qur'onning hammasini, ba'zilar yarmini, ba'zilar esa uchdan birini yod olganlar. Hamma oyatlarni yod olganlar «qurro» deb atalgan.

Qur'onning to'planishi va tarqatilishi. Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning vafotlaridan so'ng, birinchi xalifa Hazrat Abu Bakr roziyallohu anhu zamonlarida, Yamoma urushida yetmishtacha qurro shahid bo'lgach, Hazrat Umarning maslahati bilan Qur'on oyatlarini bir mushafda to'plash zaruriyati tugildi. Bu muhim ishni amalga oshirish Zayd ibn Sobitga topshirildi. «Zayd ibn Sobit g'oyat ehtiyotkorlik bilan ish ko'rdi. Qur'on oyatlaridan faqat qorilarning xotirasidagilarni etarli deb bilmadi. Har bir oyat uchun ikki odil shohid eshitildi.» — Islom olimlarining tarixiy yozuvlaridan.

Uchinchi xalifa Hazrat Usmon roziyallohu anhu zamonlarida (milodiy 650-yil) Qur'onning o'qilishi borasidagi ixtiloflarni bartaraf etish maqsadida ikkinchi bir hay'at tuzildi. Bu hay'at tomonidan istinsoh qilingan Qur'on nusxalari islom mamlakatlariga tarqatildi. Bugungi kunda qo'limizda mavjud Qur'oni Karim ayni shu nusxalarning o'zgidir.

Ilmiy istilohda Qur'on «Vohiyi matluvv» — tilovatli vohiy deb ataladi. Bu degani, Qur'onning harfi ham, lafzi ham, ma'nosining tamomi ham Allohning so'zidir. Qur'on payg'ambarimizga aloqador bo'lgan boshqa vohiyalardan — yadislari qudsiylardanfarqli ravishda — to'g'ridan-to'g'ri Allohning kalosmi sifatida e'tirof etiladi. Qur'oni Karimda 114 sura va 6666 oyat mavjud (Zamaxshariy rivoyatiga ko'ra). Bu oyatlar nozil bo'lish tartibiga qarab Makkiy va Madaniy suralarga ajratiladi. Makkiy suralar asosan aqidaviy masalalarni, Madaniy suralar esa ijtimoiy-huquqiy hukumlarni qamrab oladi.

Sunnatning ta'rifi va turlari.Sunnat — shar'iy manbalarning ikkinchisi. Islom huquqida sunnat deganda Payg'ambarimizning so'zlari (hadislari), amallari (fe'llari) va rozilik bilan jim turishlari (taqrirlari) tushuniladi. Mutoloq holda Rasulullohning so'zlariga «Hadisi Sharif» deyiladi.

Hadislarning ilmiy tasnifiga ko'ra ular uch turga bo'linadi: birinchisi, hadisi qudsiy — lafzi Payg'ambardan, ma'nosi Allohdan bo'lgan hadislar; ikkinchisi, hadisi Nabiy — ham lafzi, ham ma'nosi Payg'ambardan bo'lgan hadislar; uchinchisi, hadisi taqrirlar — Payg'ambarimiz so'zlash o'rniga toqat bilan rioya qilgan holatlar.

Payg'ambarimiz hayotlik choglarida sahobalar hadislarni asosan yodlab olib, og'izdan-og'izga naqt etganlar. Dastlab hadislar maxsus yozib olinmagan, chunki Qur'on oyatlari bilan aralashib ketmasligi uchun Rasululloh: «Mening og'zimdan Qur'ondan boshqa hech narsa yozib olmanglar!» — deb buyurganlar.

Qur'on oyatlari to'planib, nusxalari ko'paytirilgach, hadislarni ham to'plash zarurati tug'ildi. Hadislarni birinchi bo'lib to'plashni buyurgan kishi Umar ibn Abdulaziz (vafoti hijriy 101 / milodiy 719) bo'ldi. Birinchi marta hadislarni tizimli tarzda yig'gan esa Zuhriy (Ibn Shihob, vafoti hijriy 112 / milodiy 739) hisoblanadi.

Olti asosiy hadis to'plamlari — Kutubus Sitta. Muhaddis olimlar orasida shuhrat qozongan eng katta hadis kitoblari oltita bo'lib, ular «Kutubus Sitta» nomi bilan mashhurdir. Bu to'plamlar quyidagi buyuk muhaddislar tomonidan tartib berilgan:

1. Imom Buxoriy (vafoti hijriy 256 / milodiy 869)
2. Imom Muslim (vafoti hijriy 261 / milodiy 874)
3. Imom Abu Dovud (vafoti hijriy 275 / milodiy 888)

4. Imom Termiziy (vafoti hijriy 279 / milodiy 892)

5. Imom Nasa'iy (vafoti hijriy 303 / milodiy 915)

6. Ibn Moja (vafoti hijriy 273 / milodiy 886)

Imom Buxoriy va Imom Muslimga ilmiy muhitda «Shayhayyn», ularning kitoblariga esa «Sahihayn» deyiladi. Bu ikki to'plamda jami 10-12 mingga yaqin hadisi sharif mujassamlashgan.

Sunnat Qur'onni tafsir etadi, ochiqlab beradi. Qur'onning mushkul tomonlarini tushuntiradi. Sunnat Kitobga muhtoj bo'lgani kabi, Kitob ham Sunnatga muhtojdir — bu ikki manba bir-birini to'ldiradi.

Qiyosning ta'rifi va zarurati. Qiyos — shar'iy hukmlarning uchinchi manbai. U Kitob va Sunnatda to'g'ridan-to'g'ri hukumi topilmagan masalalar bo'yicha mujatahidlarning (Islom huquqchilarining) mavjud iftifot asosida analitik xulosa chiqarish metodidir. Qiyosning sha'riy zaruriyatini shunday tushuntirish mumkin: Kitob va Sunnat muayyayn bir davrda — Payg'ambarimizning yigirma uch yillik risolat davri bilan chegaralangan. Lekin hayot, jamiyat va muomalalar cheksiz va to'xtamasdir. Shu sababdan buyuk islom olimlarining ijtihoatlari asosida yangi masalalarni hal etish zaruriyati tug'ildi.

Muoz ibn Jabal hadisi — qiyosning shar'iy dalili. Qiyosning shar'iy asos ekanligi Qur'on, hadis va ijmo' bilan isbotlangan. Muoz ibn Jabalga bo'g'liq mashhur hadis qiyosning sunnat bilan shar'iy dalil bo'lishiga eng yorqin misoldir: Payg'ambarimiz Muozni Yamanga voliy etib tayinladilar va so'radilar: «Ey Muoz, u yerda nima bilan hukm va qazo qilasan?» — «Allohnin Kitobi bilan», — dedi Muoz. — «Kitobdan topolmasang?» — «Rasulullohnin Sunnati bilan.» — «U yerda ham topolmasang?» — «O'z ra'yim bilan ijtihod etaman, yo Rasululloh!» Muozning bu javobidan Rasululloh nihoyatda mamnun bo'ldilar.

Bu hadis qiyos va ijtihodning nafaqat ruxsat etilgan, balki zarur bo'lgan holatlarda unga murojaat etish lozimligini ko'rsatadi.

Qiyosning shar'iy chegaralari. Qiyos aslo Kitob va Sunnatga zid bola olmaydi. U mavjud shar'iy hukumni o'xshash bir sababga tayanib boshqa masalaga ham qo'llaydigan

mantiqiy usuldir. Shar'iy hukumlarni dalillar bilan chiqarish salohiyatiga ega bo'lgan ulug' olimlar mujatahid deyiladi. Faqat mujatahid darajasiga etgan olimlar qiyos qila oladi.

Qiyos usulida: asl masala (nass bilan isbotlangan), fur' masala (qiyos qilinayotgan), illat (ikkisini birlashtiruvchi ortiq sabab) va hukum (asldagi hukumning fur'ga ko'chishi) kabi to'rtta element bo'lishi shart.

Ijmo'ning ta'rif. Ijmo' — Islom dinining to'rtinchi manba va kuchli shar'iy dalil. U bir asrda yashagan mujatahidlarning shar'iy bir hukum ustida to'la itofoqlashuvidir. «Ijmo'» arabcha «jama» (yig'moq) so'zidan kelib chiqib, uyg'unlik va birlashuvni anglatadi.

Ijmo'ning amalga oshishi uchun asosiy shart shuki, ushbu davrda yashagan hamma mujatahidlar — bitta ham muxolif bo'lmasdan — muayyan masala bo'yicha bir fikrga kelishlari zarur. Agar ulardan bittasi boshqa fikirda bo'lsa ham, ijmo' bo'lmaydi, chunki o'sha muxolifning haq bo'lishi ehtimoli bor.

Ijmo' turlari va darajalari. Ijmo'ning turli darajalari mavjud. Eng yuqori darajasi — sahoba ijmo'sidir. Bu Payg'ambarimiz sohobalarining biror masala bo'yicha mutafiq bo'lishidir. Asri Saodatda ijmo' zarur bo'lmasdi, chunki shar'iy hukmlar bevosita Payg'ambarimizdan o'rganilardi. Rasulullohdan keyingi birinchi sahoba ijmo'si Hazrat Abu Bakrning xalifaligiga saylovda kuzatildi. Ijmo' ham Qur'onga va hadisga zid bo'la olmaydi. Agar zid bo'lsa, unga «ijmo'i ummat» deyilmaydi. Bu holda u bekor yoki xato deb qaraladi.

Ijmo'ning fiqhiy ahamiyati. Ijmo' Islom huquqi tarixida katta amaliy ahamiyat kasb etgan. Sahobalardagi ijmo', tabo'in davrida keyingi avlodlar uchun kuchli manba bo'lib xizmat qilgan. Ijmo'ning eng muhim xususiyati shuki, u mujtahidlarning shaxsiy fikrlari emas, balki hamma tomondan tan olingan mutloq bir asosga — Kitob va Sunnatga — suyanadi.

To'rtta shar'iy manba — Kitob, Sunnat, Qiyos va Ijmo' — bir-biridan alohida emas, balki uzviy bog'liq bir tizimni tashkil etadi. Bu tizimning mantiqiy tartibi quyidagicha: Birinchi qadam: Masala Qur'on oyatlarida qidiriladi. Agar hukum Kitobda topilsa, eng avval shu bilan amal qilinadi. Ikkinchi qadam: Agar Kitobda topilmasa, Sunnatga murojaat

etiladi. Payg'ambarimizning hadislarini Qur'onni sharhlaydi va to'ldiradi. Uchinchi qadam: Kitob va Sunnatda ham hukm topilmasa, mujatahidlar Qiyos usuli bilan o'xshash masalaga taqqoslab xulosa chiqaradilar. To'rtinchi qadam: Ijmo' esa bu uch manbadan kelib chiqadigan yig'ma hukmni mustahkamlaydi va unga umumiy kuch beradi. Bu tizimni Islom huquqi olimi Imomi A'zam Nu'mon ibn Sobit — Abu Hanifa (vafoti hijriy 150 / milodiy 768) tomonidan ilmiy atamachilik bilan rasmiylashtirilib, «Fiqh ilmi» deb atalgan.

Vohiy va ra'y: asosiy tasnif. Xulosa qilib aytganda, shar'iy dalillarning hammasi yo vohiyga asoslanadi, yo ra'yga. Qur'on — tilovatli vohiy (Vohiyi Matluvv). Hadislar — qalb vohiyi (Vohiyi G'ayri Matluvv). Ijmo' — barcha mujatahidlarning ra'yi. Qiyos — ayrim mujatahidlarning ijtihodi.

Ahlus Sunna mazhablarida manbalar. Hozirgacha tarafdorlari mavjud bo'lgan ahli sunna mazhablarining to'rttasi — Hanafiy, Shofiy, Molikiy, Hanbaliy — ham ana shu to'rtta asosiy manbaga suyanadi. Mazhablar orasidagi farqlar manbalarning o'zida emas, balki ularni qo'llash usulida va ustuvorlik tartibidadir.

XULOSA. Islom dinining to'rtta shar'iy manbai — Kitob, Sunnat, Qiyos va Ijmo' — bir-birini to'ldiruvchi, mantiqan izchil va ilmiy asoslangan bir tizimni tashkil etadi. Ushbu tadqiqot quyidagi asosiy xulosalarga keldi:

1. Qur'oni Karim — to'liq, o'zgarmas va abadiy hujjat sifatida barcha shar'iy hukmlarning birlamchi manbaidir. U Payg'ambarimiz zamonidan to bugungi kunga qadar so'zma-so'z, harfma-harf saqlanib kelgan.

2. Sunnat Qur'onning amaliy sharhi va to'ldirishidir. Kutubus Sitta kabi ilmiy to'plamlar orqali hadislar tarixiy jihatdan sinchikovlik bilan tasdiqlangan.

3. Qiyos — shar'iy hukmlarni yangi masalalar zahiriga qo'llashning mantiqiy usuli bo'lib, fiqhiy tafakkurni rivojlantirishda muhim rol o'ynagan.

4. Ijmo' — mujatahidlar orasidagi mutafoqlikni mustahkamlash va shar'iy hukmlarning umumiy maqbulligini ta'minlash vositasidir.

Mazkur to'rtta manba, birgalikda, Islom huquqining mustahkam va dinamik tizimini tashkil etadi — bu tizim asrlar davomida millionlab insonlarning hayotini tartibga solib kelgan va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Izmirli, Ismoil Haqqi. Dorulfonunda usuli fiqh darslari. Istanbul, 1915. — 15-bet.
2. Imom Buxoriy. Sahihul Buxoriy. 2-jild. — 751-bet.
3. Abdulaziz, Diyorbakrlk Sa'id Posho. Mir'ota-l-Ibar. 6-jild. — 177-bet.
4. Zahabi, Hofiz. Siyar A'lam an-Nubala. Beirut: Muassasat ar-Risala, 1981.
5. Suyutiy, Jaloliddin. Al-Itqon fi Ulumil Qur'on. Qohira, 1974.
6. Tayribiy Sariih, Tarjima. 1-jild. — 39, 250-bet. Prof. Ahmad Naim Bey tarjimasi.
7. Abu Hanifa, Nu'mon ibn Sobit. Al-Fiqh al-Akbar. Halab: Maktabat al-Matbuaat al-Islamiyya, 1984.
8. Abu Zahra, Muhammad. Abu Hanifa. Usmon Keski o'g'li tarjimasi. — 242-bet.
9. Ismirli, Ismoil Haqqi. Ma'oni Qur'on. 2-jild. — 587-bet.
10. Hoydar Afandi. Usuli fiqh darslari. Istanbul. — 367-bet.
11. Ibn Hajar Asqaloni, Hofiz. Fathul Bori sharh Sahihil Buxoriy. Beirut: Dor al-Ma'rifa, 1960.
12. Zaydun, J'urji. Islom tamadduni tarixi. Arabchadan tarjima. Qohira, 1904.